

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI KOREYA TADQIQOTLARI ILMIY-TA'LIM MARKAZINING YILLIK HISOBOTI

· Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Koreya tadqiqotlari ilmiy-ta'lim markazining 2025–2026-o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasi tahlili shuni ko'rsatadiki, markaz faoliyati ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda koreyashunoslik sohasida zamonaviy ilmiy maktabni shakllantirishga qaratilgan. Rejada markaz a'zolari bilan tashkiliy yig'ilishlar o'tkazish, "Korean Research Club" faoliyatini yo'lga qo'yish, yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarni ilmiy jarayonlarga jalb etish, Keimyung universiteti professorlari ishtirokida mahorat darslarini tashkil etish, iqtidorli talabalar, magistrantlar va doktorantlar bilan innovatsion hamda startap loyihalarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Shuningdek, universitetda koreyashunoslik yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning monitoringini amalga oshirish, ularning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.



· Markaz faoliyati davomida xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va ilmiy natijalarni xalqaro maydonga olib chiqish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2026-yil 9-fevral kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “O‘zbekiston–Koreya: o‘zaro hamkorlikning bugungi kuni va istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman muvaffaqiyatli tashkil etildi. Mazkur nufuzli tadbir O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Koreys tili va madaniyati markazlari hamda qator xalqaro tashkilotlar hamkorligida o‘tkazildi. Anjumanda O‘zbekiston va Koreya Respublikasining yetakchi olimlari, professor-o‘qituvchilari hamda tadqiqotchilari ishtirok etib, ta’lim, fan, madaniyat, koreys tilini o‘qitish, akademik almashinuv va ilmiy



hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Shu bilan birga, markaz vakillarining 2026-yil 29-iyundan 1-iyulga qadar Fransiyaning La Rochelle shahrida bo‘lib o‘tadigan xalqaro ilmiy

konferensiyada offline va online formatlarda ishtirok etishi rejalashtirilgan.

The International Society of Korean Applied Linguistics

The 18h Annual Conference (France) of
The International Society of Korean Applied Linguistics
2026

Key Issues and Challenges
in Applied Linguistics in the
Era of AI Transformation



| | |
|---------------------|--|
| Date | June 29, 2026 – July 1, 2026 |
| Venue | La Rochelle Université, La Rochelle, France |
| Organized by | The International Society of Korean Applied Linguistics La Rochelle University King Sejong Institute of La Rochelle Institute of Language & Information Studies, Yonsei University BK21Four Educational-Research Group in Korean Language and Literature, Yonsei University |
| Supported by | KONG & PARK, INC. |


The International Society of Korean Applied Linguistics
국제한국어응용언어학회

2026-yil 1–3-iyul kunlari Angliyaning Sheffield universitetida bo‘lib o‘tadigan “The 24th International Conference on Korean Linguistics (ICKL 2026): Variation and Diversity in Korean Linguistics” xalqaro konferensiyasida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti Yunusova Gulshodaning ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishi markaz ilmiy salohiyatining xalqaro miqyosda e’tirof etilayotganining muhim ko‘rsatkichidir.



Scopus hamda Web of Science bazalarida indekslanuvchi jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish hamda Keimyung universiteti bilan hamkorlikda iqtidorli talabalarni Summer School dasturlariga yuborish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

2025–2026-o'quv yilida Koreya tadqiqotlari ilmiy-ta'lim markazi faoliyati doirasida O'zbekiston va Koreya Respublikasining yetakchi koreyashunos olimlari bilan ilmiy hamkorlikni rivojlantirish hamda ularning ilmiy-pedagogik tajribalarini yosh tadqiqotchilar, talabalar va magistrantlar bilan baham ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Korea Foundation fondi hamda Keimyung universiteti hamkorligida amalga oshirilayotgan online-offline tandem darslar loyihasi doirasida Keimyung universiteti professorlari Min Gyong Mo va Kang Hyonja tomonidan masofaviy ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Shuningdek, mazkur professorlarning Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga tashrifi davomida ilmiy seminarlar, mahorat darslari va akademik uchrashuvlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlar talaba-yoshlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, zamonaviy koreyashunoslik yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash hamda ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirishga xizmat qildi.



Markaz faoliyatini keng jamoatchilikka targ‘ib qilish hamda koreyashunoslik sohasida erishilgan ilmiy natijalarni xalqaro miqyosda ommalashtirish maqsadida ilmiy maqolalarni nufuzli xorijiy nashrlarda chop etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borildi. Hisobot davrida markaz a‘zolari tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalardan biri Scopus xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasida indekslanuvchi Q1 toifasidagi nufuzli ilmiy jurnalda nashr etildi. Mazkur natija markazning ilmiy salohiyati, olib borilayotgan tadqiqotlarning dolzarbligi va xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi.

Abbasova D., and et.al. (2026). Designing an Advanced Gamified Collaborative Learning Model to Foster Student Engagement and Peer Interaction in Online Education. *Indian Journal of Information Sources and Services*, 16(2), 704–712. <https://doi.org/10.51983/ijiss-2026.16.2.70>

Koreyashunoslik oliy maktabida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni xalqaro ta’lim dasturlariga jalb etish hamda ularning akademik va madaniy salohiyatini rivojlantirish maqsadida Keimyung universiteti va Korea Foundation fondi bilan hamkorlik ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Mazkur hamkorlik doirasida Koreyashunoslik oliy maktabining 3-bosqich iqtidorli talabasi 2026-yil 9–17-iyul kunlari Koreya Respublikasida tashkil etiladigan “Summer School” dasturida ishtirok etish uchun

yuborilmoqda. Dastur davomida talaba koreys tilini chuqur o‘rganish bilan bir qatorda Koreya Respublikasining tarixi, madaniyati, urf-odatlar va an‘analariga oid nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarda qatnashadi. Shuningdek, Koreyaning tarixiy obidalari, madaniy markazlari va ta‘lim muassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu dastur talabaning xorijiy tajribani o‘zlashtirishi, koreys tilidagi kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishi, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlashi hamda kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan xalqaro tajriba orttirishiga xizmat qiladi. Ta‘kidlash joizki, “Summer School” dasturida ishtirok etish bilan bog‘liq barcha xarajatlar, jumladan, aviachipta, turar joy, ta‘lim dasturi va madaniy tadbirlarda qatnashish xarajatlari Korea Foundation fondi tomonidan to‘liq moliyalashtiriladi. Mazkur tashabbus Koreyashunoslik oliy maktabining xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, talabalar uchun xalqaro ta‘lim imkoniyatlarini yaratish hamda O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi ta‘lim va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.



KF 1022000.000432



Letter of Invitation

June 9, 2026

Dear Ms. Mirgʻiyosova Muntoza Shukhrat kizi,

I am pleased to extend to you a warm invitation from the Korea Foundation (KF) to the KF Global e-School Fellowship Program at Keimyung University in Daegu, Korea from July 8 through July 17, 2026.

The KF first launched the KF Global e-School in 2011, offering Korean studies courses online to universities outside of Korea. As part of the e-School initiative, the KF and Keimyung University would like to invite students who demonstrated excellent achievement in their KF Global e-School courses in the Spring or Fall 2025 semester.

The fellowship program will provide an enhanced academic experience for students seeking to dive deeper into Korean studies. During your stay in Korea, you will take courses equivalent of one semester's load of work condensed into 10 days. Your itinerary will also include cultural activities and opportunities to network with both Korean and international students outside the classroom.

Please note that the KF, in partnership with Keimyung University, will cover the expenses for round-trip airfare, accommodations, and tuition fee during your fellowship period.

I am hopeful that this opportunity will broaden your understanding of Korea. The KF looks forward to welcoming you to Seoul.

Sincerely,


Jae Seung MOON
Director
Korean Studies Department
The Korea Foundation


Prof. Kim, Seon Jung
Vice-president for International Affairs
Director / KF Global e-School
Keimyung University

**Koreya tadqiqotlari ilmiy-
ta‘lim markaz direktori**

D.Abbasova